



ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)

2024/№3

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№3/2024
MART

Muassis:

Buxoro davlat universiteti
Fan va ta'lim MChJ

Bosh muharrir: Ma'murov
Bahodir Baxshullayevich

Jamoatchilik kengashi raisi:
Xamidov Obidjon Xafizovich,
Buxoro davlat universiteti
rektori

Mas'ul kotib: Akramova
Gulbahor Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov
Ismoil Ergashevich

Tahririyat manzili:
Buxoro shahar,
Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining
2021 yil 30 sentyabrda
306/6-son Qarori bilan
PEDAGOGIKA,
PSIXOLOGIYA,
FILOLOGIYA, TARIX
FANLARI bo'yicha falsafa
doktori (PhD) va fan doktori
(DSc) ilmiy darajasiga
talabgorlarning dissertatsiya
ishlari yuzasidan asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:

10.04.2024 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8.
b/t. 12,5.

Buyurtma raqami №0325
«FAN VA TA'LIM» nashriyotida
chop etildi. Buxoro shahar
<https://interscience.uz/> saytida
joylashtirildi

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305
raqami bilan O'zbekiston
Ommaviy axborot vositalari
davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi
va 2 oyda 1 marta chop etildi.
2021 yil noyabr oyidan
boshlab har oyda 1 marta
o'zbek, rus va ingliz tillarida
chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion
tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-
metodik jurnalidan ko'chirib
bosish tahririyatning roziligi
bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan
faktlarning
to'g'riligi uchun muallif
mas'uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoiljonova M. U., Mo'minov H. M. Yangi O'zbekistonda sud tizimi va bu sohada islohatlarning o'ziga xos jihatlari	3
Mo'minov H. M., Qodirjonov O.T. O'zbekiston va Xitoy: hamkorlik aloqalarining yangi bosqichi (2017 – 2023-yillar)	7
Olimjonov D.Z. “Boburnoma” asarida harb ishi bilan bog'liq etnografik ma'lumotlar	12
Saydqulova S.I. Mustaqillik yillarida O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarining rivojlanishi	17
Sobirov T.R. Orta Asya'da tasarim tarihinin gelishimine ebu'l vefa el-bûzcânî'nin etkisi	21
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Artikova Z. Z. Xitoy tilida insho yozish algoritmi	35
Baratova K. X. Category of phraseological unit	38
Bazarbaeva A. Analysis of colour terms in the context of cognitive-discursive approach	45
Buronova X. T. O'zbek tili tibbiy terminlarining genetik xususiyatlari	48
Eshonqulov R. T. English language semantic shift: social media neologisms	51
Haydarov A. A., Sattorova Sh. Tinish belgilarida ifodalangan fonografik uslubiy vositalar	56
Kadirova N. A., Saidova Z. S. Fransuz va o'zbek tillarida fe'l so'z turkumini o'rgangan olimlar	59
Mirqodirova Z. Sh. Til o'rganishda tanqidiy fikrlashning ahamiyati	63
Otaxonova H. A. Methods of research of media texts	68
Qayumova N. M. Shekspir va Rauf Parfi sonetlarida portret	73
Qodirova G. Folklor matnlarining lingvostatistikasi tadqiqotlari tahlili	77
Примкулова С. Б. Словарный состав, и его изменчивость	81
Sanoyeva G. R. Sodda gap sintaksisning asosiy birligi sifatida	87
Saydamatov I. The different peculiarities of phraseological units with somatic components in modern linguistics	91
Темирова Ш. Г., Хаджикурбанова Г. А., Юлдашева С. Т. Фразеологизмы в разных языках: сходства и различия	95
Turakulova Kh. S. Development and practice of language learning and teaching methods in Uzbekistan	101
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
Abdrimov I. A. Zamonaviy pedagogik va psixologik adabiyotlarda kreativ fikrlash tushunchasining tahlili	106
Abdullaeva F. N. Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslar orqali talabalarning mustaqil ta'lim olish jarayonini tashkillashtirish	111
Asiljonova Sh. D. Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini ingliz tilida produktiv faollashtirish	117

Atakov I. Maktablarda "Tarbiya" fani o'qitishda innovatsion yondashuvlar nazariyasi va amaliyoti	122
Azimova G. B. Talabalarning o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda qo'llaniladigan metodlar	128
Amonova N. M. Talabalarda aqliy kompetentlikni takomillashtirish yo'nalishlari	132
Boymirov Sh. T., Zamonova Sh. S. Didaktik tamoyillar asosida fizikani o'qitish	136
Байбаева М. Х., Юлдашева Х. К. Квалиметрическое обеспечение как фактор развития образовательных систем в высшей школе	140
Egamov M.X. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlarini o'qitishning zamonaviy didaktik modellari va usullari	144
Hasanova N. N. Sabzavotchilikdagi islohotlar va yangi navlarning yaratilish tarixi	151
Ibragimov A. A., Kurbanova Sh. M. O'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun masofaviy ta'lim elementlarini qo'llash usullari	154
Inoyatov A. Sh. Keksa yoshdagi kishilarning salomatligi va psixofiziologik xususiyatlari	161
Isakulova N. Bojxona sohasiga oid terminlarni o'qitishda axborotli va amaliy loyihalardan foydalanish	170
Jabborova M. A. Mamlakatimiz olimlari tomonidan talabalar akademik o'zlashtirishi determinantlarini tadqiq etilishi	174
Jabborova O. M. Boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion mexanizmlari	178
Mardankulov J. A. O'quvchilarni matematika fanidan qiyin misol va masalalarni yechishga tayyorlash	184
Mirzayev Sh. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim me'yoriy hujjatlari bilan ishlashga innovatsion yondashuvlar	188
Normatova M. B. Kursantlar lingvistikasini shakllantirishda strategik kompetensiyasini shakllantirish muammosi	193
Ozodova M. H. Boshlang'ich sinflarda muloqot ko'nikmasini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlaridan foydalanish	197
Po'latov L. A. Ta'lim tizimida faol talaba shaxsining intellektual xususiyatlarini rivojlantirishning ahamiyati	201
Pulatova M. K. Maktab o'qituvchilarida o'quvchilarni o'quv strategiyalariga (learning strategies) o'rgatish ko'nikmalarini rivojlantirish	206
Karimova N. X. Kasbiy-pedagogik faoliyatga talabalarni moslashtirish jarayoniga kreativ yondashuv tamoyillari	210
Saydullaev D. Ya. Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammosining ijtimoiy-psixologik adabiyotlarda yoritilishi	215
Teshayev A.T. "O'zbekiston tarixi" fanini metodik takomillashtirish asosida talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish	219
Умарова Г. А. Принципы совершенствования профессиональных компетенций будущих инженеров	225
Xasanova G. I. O'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini takomillashtirishning didaktik xususiyatlari	230
Xujaqulov A.X. Mutaxassislik fanlari bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etish metodikasi	234
Xujayarova N. S. Talabalarning individual ta'lim traektoriyasini amalga oshirishda kasbiy kompetensiyaning o'rni	238
Yuldasheva M. E. Bo'lajak pedagoglarda komunikativ va komunikabellik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	241
Yunusova X. Sh. Ta'lim tizimi uchun pedagoglarni tayyorlash-dolzarb muammo sifatida	245
Закирова М. Р. Исследование уровня сформированности креативной информационно-коммуникационной компетентности директоров общеобразовательных школ в республике узбекистан	249
Захидова Д. А. Подготовка педагогов дошкольного образования к оздоровительно-образовательной работе с детьми	256

13.00.04 – JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG‘ULOTLARI NAZARIYASI VA METODIKASI	
Amirov A. S. Kurashchilarning moslashuvida etnopedagogik, etnopsixologik psixofiziologik xususiyatlarini nazorat qilish.	260
Mansurov B. K. Yosh valeybolchilarni musobaqalarga tayyorlash tizimi	267
Mo‘ydinov M. R. Belbog‘li kurashchilarning koordinatsion mashqlar yordamida texnik – taktik tayyorgarligini takomillashtirish	272
Мухаммадиев К. Б. Реализация технологии физического воспитания детей 6-9 лет на спортивно-оздоровительном этапе в кураш	283
Чоршамиев Н. А. Довруғи ошиб бораётган миллий кураш турларининг илмий салоҳияти ва имкониятлари	289
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Alimov X.M. “Men” – konsepsiyning psixologik talqini	297
Askarova N. A. Pedagoglarda kasbiy kuyishni keltirib chiqaruvchi psixologik omillarni o‘rganilganligi	300
Ataqulov B. A. Shaxsda ekstremistik qarashlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik jihatlar	304
Абдуллажонов Ш. А., Абдуллаева Д. Н. Психологические особенности определение уверенности студентов в себе	308
Bozorov A. A. Professor-o‘qituvchilarni psixik imkoniyatlari kasbiy rivojlanishiga ta’siri masalalari	312
Dosjanova Yu. R. Yoshlarning diniy qadriyatlarida sotsial-psixologik xususiyatlarni shakllanganlik darajalarini tadqiq qilish metodlari	316
Dusmuxamedova Sh. A. O‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga nisbatan ishonch va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatning o‘zaro aloqadorlik xususiyatlari	321
Ismoilova N. Z. O‘quvchi va talabalarda koping strategiya namoyon bo‘lishining o‘ziga xosligi	325
Лекерова Г. Ж., Юлдашева С. З., Бавбекова А. Э. Психологические проблемы психологического обслуживания семьи	329
Meliqo‘ziyeva M. A., Isaxanova M. E. Pedagogik muloqotda nizolarning psixologik xususiyatlari	334
Nazarov A. S. Boshqaruvda qaror qabul qilish modellari, texnologiyalarining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari	338
Normurotova A. Psychological-pedagogical conditions of teaching natural sciences in primary grades	344
Нуралиева Б. Значение психологической культуры для современного общества	348
Odilova Yo. I. Ota-onalarning bolaga munosabati ijtimoiy fobiya omiliga yo‘naltirilgan tadqiqot metodikalarining psixologik tavsifi	352
Otanazarova M.U. Qayta nikohdagi oilalarda ota-ona va farzand munosabatlarining psixologik jihatlar	356
Pulatova G. M., Maxamadjonov J. Z. Kichik maktab yoshidagi bolalarda bilingvizm hodisasining shakllanish omillari.	359
Rahmonova D. Xulqi og‘ishganlik va uni profilaktika qilishning psixologik yo‘llari	363
Saidova Yu. A. O‘smirlarda ishonch hissi va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	366
Toshpo‘latova M. I. Antroposentrik lingvistikada shaxs fenomeni hodisasi	370
Тиллашайхова Х. А. Проблема социально-психологического благополучия личности в условиях глобализации	375
Tulyaganova D. R. Ijtimoiy moslashuv maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish predikati sifatida	379
Isaxanova M. E. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy jarayonlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	384
Umarov B. M. Bolalar va o‘smirlarda xulq og‘isining ijtimoiy-psixologik omillari	388
Umarova M. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarda shaxs xususiyatlarining rivojlanishi	394
Sharopov N. M. Talabalarda internet tobeligini susaytirishda ko‘ping xulq muommosining nazariy tahlili	399

MAKTAB O'QITUVCHILARIDA O'QUVCHILARNI O'QUV STRATEGIYALARIGA (LEARNING STRATEGIES) O'RGATISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*Pulatova Muattar Kurakboyevna,
Samarqand Davlat Universiteti tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.043>*

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonlari qamroviga kirgan o'quv startegiylari, pedagoglarning kasbiy rivojlanish tendensiyasi, o'quvchilarning sifatli bilim olishi, o'z ustida mustaqil ishlay olish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida pedagoglarning roli, o'qituvchi o'zida yangi yondashuvlarni shakllantira olishi va mavjud ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: strategiya, o'quv strategiyasi, pedagog, ta'lim oluvchi, kasbiy rivojlanish, o'quv strategiyalari bo'yicha maslahatchi, oson o'quv uslublarini o'rganish.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ШКОЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ ПО ОБУЧЕНИЮ УЧАЩИХСЯ СТРАТЕГИЯМ ОБУЧЕНИЯ (СТРАТЕГИЯМ ОБУЧЕНИЯ)

*Пулатова Муаттар Куракбоевна,
докторант Самаркандского государственного университета*

Аннотация: В данной статье рассмотрены образовательные стратегии, входящие в сферу современных образовательных процессов, тенденции профессионального развития педагогов, роль педагогов в процессе формирования у учащихся качественных знаний, умения работать самостоятельно, самого учителя. представлены новые мнения по вопросам развития подходов и развития имеющихся навыков.

Ключевые слова: стратегия, стратегия обучения, педагог, учащийся, профессиональное развитие, консультант по стратегии обучения, легкие стили обучения.

DEVELOPMENT OF SCHOOL TEACHERS' SKILLS TO TEACH STUDENTS TO LEARNING STRATEGIES (LEARNING STRATEGIES)

*Pulatova Muattar Kurakboyevna,
Doctoral student of Samarkand State University*

Abstract: In this article, educational strategies included in the scope of modern educational processes, the trend of professional development of pedagogues, the role of pedagogues in the process of developing students' quality knowledge, the ability to work independently, the teacher himself has a new opinions on the issues of developing approaches and developing existing skills are presented.

Keywords: strategy, instructional strategy, pedagogue, learner, professional development, instructional strategy consultant, learning easy learning styles.

Bugungi kunda o'quv jarayonini yanada mazmunli tashkil etish maqsadida soha vakillari tomonidan ta'lim berishning innovatsion yondashuvlaridan foydalanish masalasi yuzasidan ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalanish bilan bir qatorda, sifatli bilim olish zaruriy ehtiyoj va istiqbolli kelajak kaliti ekanligini o'quvchilari ongiga singdira olish ko'nikmasi har bir pedagogning professiogrammasi tarkibiga kirishi lozimligidan kelib chiqib, pedagoglarda mazkur ko'nikmani rivojlantirish yosh avlodning muvaffaqiyatli hayoti poydevori bo'la oladi deyish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmoni bugungi kun o'qituvchisining kasbiy kompetentligi, o'z ustida muntazam ishlashi, faoliyatini innovatsion tamoyillar bilan uzviy bog'laganligi, kasbiy trayektoriyasini zamonaviy strategik yondashuvlar asosida tashkil etishini nazarda tutadi.

Pedagogning kasbiy rivojlanishi nuqtai nazaridan o'quvchilarni o'quv strategiyalariga o'rgatish masalasi o'zining yangi yechimlarini kutayotgan yo'nalish sifatida innovatsion takliflarni talab etmoqda.

Hozirgi kunda foydalanilayotgan o'quv strategiyalari ta'lim oluvchining umumiy o'rganish

qobiliyatlarini yaxshilash uchun ishlab chiqilgan usullar va tamoyillar bo'lib, g'oyalar, xotiralar, mantiqiy fikrlash, his-tuyg'ular kabi resurslardan foydalangan holda o'rganish mazmunini o'zlashtirish va eslab qolishga yordam berish, o'z-o'zini nazorat va tahlil qilish singari amaliyot uchun mo'ljallangan. Samarali o'quv strategiyalaridan foydalanish turli xarakter xususiyatlariga ega bo'lgan o'quvchilarga xotira va diqqatni jamlash qobiliyatini yaxshilash, o'qish va yozish ko'nikmalarini sifatini oshirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. O'quv strategiyalarining yangi ko'rinishlari o'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olishni rag'batlantirish, oson o'quv uslublarini o'rganish, kam vaqt mobaynida hajm va sifat jihatdan ko'lami katta ma'lumotlarni osonlik bilan o'zlashtirish usullarini o'zida kashf etish kabi komponentlarni o'zida jamlagan ko'rinishlari mazkur strategiyalarining modern turlari sifatida baholanadi.

Ta'lim oluvchi jamiyatda muvafaqqiyatga erishgan shaxs sifatida kamolga yetishi uchun o'z ehtiyojlari savfiga o'qish, bilim olish, ko'nikmalarni mustahkamlash kabi harakatlarni turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirishi zarurligini, o'quvchi ongida muntazam ravishda o'z ustida ishlash ko'nikmasini kundalik hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qilinishida dastlabki turkuni pedagog o'z vaqtida bera olishi muhim ahamiyatga ega.

D. Kidd (Kanada), M. Noulz (AQSh), P. Djarvis (Angliya) kabi olimlarning pedagogik qarashlarida ilgari ketishga mo'ljall olish g'oyasi muhim nazariy asos sifatida e'tirof etiladi. Bu kontekstda nafaqat oliy ta'limga tayyorgarligi, balki faoliyatining undan keyingi bosqichlarida ham o'qituvchi pozitsiyasini davr talablariga hamohang tarzda kasbiy darajasini uzluksiz oshirib borish orqali faoliyatini yuritishga qodir bo'lgan umrbod o'rganuvchi o'rnida belgilash qimmatli yondashuv sifatida tasavvur qilinadi. O'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan yangi talablar hamda chaqiriqlarga tez va samarali munosabat bildirgan holda uning mustaqil ravishda o'zgartirishlar kirita olish kompetentligi ham zaruriy sifat tariqasida baholanadi. [5]

O'qitishning dolzarb muammolariga bag'ishlangan kurslar tashkil qilish, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish va ommalashtirish o'qituvchilarning o'z faoliyatlarini tashxislashlarini ta'minlash, pedagoglarning kreativ salohiyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligidan kelib chiqib, individual rivojlanish faoliyatini qo'llab-quvvatlash ta'lim oluvchida o'quv strategiyasi tushunchasini shakllanganlik darajasi muhim sanaladi. Schumaker va Deshlerlar [3] yondashuviga ko'ra o'quv strategiyasi maktabda, shuningdek, akademik bo'lmagan sharoitlarda ta'lim mazmunini o'rganish yoki boshqa vazifalarni yanada samarali bajarish uchun shaxsning muayyan ko'nikmalar to'plamini tashkil qilish va ishlatish usuli.

O'quv strategiyasi bo'yicha ko'rsatmalar o'quvchilarga qanday o'rganish lozimligi, muammolarni qanday hal etish usullari va muvafaqqiyatga erishish uchun o'rgangan ma'lumotlaridan qanday foydalanishni o'rgatish orqali o'qish jarayonini osonlashtiradigan tamoyillar hisoblanadi. O'quv strategiyalari imtihondan o'tish uchun o'qish rejasini ishlab chiqishni o'rganish, ma'lumotlar mazmunini tushunishni nazorat qilib borish, o'quv materiallarini aniqlashtirish va natijalarni baholashni ham o'z ichiga oladi. O'quv strategiyalari umr davomida o'qib o'rganishning (lifelong learning) tamoyili bo'lib, quyidagicha bosqichli startegiyalarni ishlab chiqishni nazarda tutadi:

- maqsadlarni belgilash;
- o'z-o'ziga o'rgatish;
- o'z-o'zini nazorat qilish;

Mazkur jarayonda ta'lim beruvchi o'quv ko'nikmalari bo'yicha maslahatchi maqomiga ega bo'ladi. O'quv strategiyalari bo'yicha maslahatchiga aylangan pedagog o'quvchilarga o'quv dasturi materialining mazmunini yoki muayyan ko'nikmalarni o'rgatish bilan birga, qanday qilib o'rganishni o'rgatadi. Jarayonda pedagog imkoniyatlar bo'yicha ko'rsatkichlarga asoslanib, har bir o'quvchiga o'ziga kerak bo'lgan individual o'quv strategiyalarini ishlab chiqish yoki takomillashtirishga yordam berish uchun mo'ljallangan maxsus amallar ketma-ketligini rejasini tuzadi va tanishtiradi, o'quv yili mabaynida muntazam ravishda kuzatadi. O'qituvchi o'quvchilariga quyidagi turlarga mansub o'quv strategiyalarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin: vaqtni boshqarish va tashkil etish, matnni o'qish va tushunish, ma'lumotni o'rganish va eslab qolish, yozib borish va qayd etib qo'yish, samarali muloqot qilish, motivatsiya, muammoni hal qilish, topshiriq natijasini sifat jihatidan oshirish.

Dunyo hamjamiyati bugungi kunda o'quv strategiyalarini ma'lumotlarni o'rganish va vazifalarni yanada samaraliroq bajarish kabi maqsadlarda foydalanishni asoslaydi. Mazkur strategiyalar quyidagi

maqsadlarda yordam berishini nazarda tutadi: matnni o'qish va tushunish, loyihalar va yozma ishlarni bajarish, eslatmalar yozib olish, vaqtni boshqarish, tashkil eta olish, ma'lumotlarni o'rganish va eslab qolish, test topshirish, muammoni hal qilish, o'z-o'zini himoya qilish. O'quv strategiyalari bo'yicha maslahatchi ta'lim oluvchining jismoniy imkoniyatlari, nogironlik bilan bog'liq ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim oluvchi bilan birgalikda kerakli o'quv strategiyalarni ishlab chiqish yoki takomillashtirishga mo'ljallangan mahsus mashg'ulotlar ketma-ketligi rejasini yaratadi.

Yurtimizda ushbu amaliyotni o'quv jarayoniga tadbqiq etish yuzasidan bugun yechimini kutayotgan masalalar bisyor. Ayni vaqtda, o'qituvchilarning aksriyati o'quvchilarga faqat ta'lim mazmunini sifatli yetkazib berish bilan cheklanib qolayotgani sir emas. Mavzu miqyosida belgilab olingan ma'lumotlar sifati birinchi o'ringa ko'tarilgan ayni vaqtda, mazkur ma'lumotni o'quvchi qay darajada o'zlashtira olishi ehtimolini prognozlash biroz e'tibordan chetda qolmoqda. Innovatsion g'oyalar bilan boyitilgan mazmunni qanday usullar, strategiyalar yordamida "hazm" qilish usullarini o'quvchiga o'rgatish, shakllantirish va takomillashtirish borasida yangi izlanishlar olib borilishi maqsadga muvofiq.

Pedagoglar uzluksiz ta'lim jarayonining eng muhim bo'lagi sifatida o'z faoliyatini doimiy ravishda rivojlanib, o'zgarib boradigan ijtimoiy-iqtisodiy hamda kasbiy sharoitlarga moslashtirib borishi, mahoratini, kasbiy va shaxsiy kompetentligini rivojlantirishi uchun yangiliklarni ijod qilishi lozim. O'qituvchi doim kasbiy bilimini boyitish, ko'nikmalarni uyg'unlashtirish, amalga oshirish kabi yangi bilim va tajribalarga ochiq bo'lishi muhim. Samarali ta'lim atributlarini tushunishda o'quvchilarga yordam beradigan strategiyalarni o'rganish, o'rgatish, ijod qilish, diognozlash ko'nikmasini har bir o'qituvchining kasbiy komponentliklariga kiritish muvafaqqiyatli ta'lim jarayonini kafolatlashi prognoz qilinmoqda.



1-rasm. O'quv srtategiyalariga va an'anaviy yondashuvga asoslangan o'qitishda o'qituvchi o'rtasidagi farqlar

L.S.Vygotskiyning ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi kontseptsiyasiga[5.94] muvofiq o'quv jarayoni olingan nazariy bilimlar orqali amalga oshiriladi. Biroq, ta'lim faoliyatining o'zi pirovardida birgina bilim olishga emas, balki muayyan faoliyat turlarini shakllantirishga qaratilgan jarayon ekanligiga ham urg'u beradi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda o'quv faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni ta'lim faoliyati mualliflari tomonidan ta'lim vazifalarini bajarish jarayonida o'quvchilarda shakllangan motivlardan kelib chiqadigan turli xil harakat va usullardan ko'nikmani o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat sifatida talqin qilinmoqda.

Yangi o'qish usullarini, harakatlarini o'zlashtirish o'quvchilarda o'z-o'ziga o'rgatish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida o'qituvchining faoliyati va o'rgatish qobiliyatlari orqali amalga oshiriladi.

Strategik yondashuvni qo'llashda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi bir xil bo'lmashligi nuqtai nazaridan har bir o'quvchining o'z ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratishni lozim. Hamkorlik tamoyillari asosida tashkil qilingan o'quv faoliyati nafaqat tushuntirish, balki, ko'rsatish, savol bera olish, hayot bilan bog'lash, eng yuqori natijalar tahlili, fiziologik imkoniyatlar sarhisobi va boshqalarga asoslanadi. Ushbu yondashuvda ta'lim olishning har qanday turida, masalan, an'anaviy, innovatsion, masofaviy-onlayn yoki mustaqil ta'lim turlarida o'quvchilarda akademik maqsadni qo'ya olish va mazkur maqsadga yetaklovchi individual harakat trayektoriyasini yarata olish ko'nikmasini shakllantirish masalasi maqsad qilinadi. Kutilgan natijaga erishish yo'lida o'zini yo'naltira olish va o'z-o'zini rag'batlantirish ko'nikmasini shakllantirishlari ham nazarda tutiladi.

Xulosa. Jamiyatimizda barkamol insonni tarbiyalash jarayonida o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik qarashlari va bilimlarini kengaytirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni, shakllari, vositalari, usullari, metodlarini boyitishda o'quv strategiyalaridan foydalanish amaliyotini qo'llab-quvvatlash va tashkil etish maqsadga erishilgan ta'limning asoslaridan biri bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

Ibragimov A.A. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini modernizatsiyalash parametrlari – T.: “NAVRO‘Z” 2019.

Ibragimov A. Pedagog xodimlar kasbiy kompetentliligini takomillashtirishga iln hamrohlikning pedagogik-psixologik xususiyatlari // O'zMU xabarlari. – Toshkent, 201 (13.00.00; №15).

Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentliligini shakllantirish texnologiyasi.–T.: “Fan va texnologiya”, 2013.

Musurmanov R. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini joriy etish mexanizmlari. - T.: “O‘zPFITI”, 2013.

Выготский, Л. С. Психология развития ребенка: сб. избр. тр. / - Москва: ЭКСМО, 2003. – 94б

Давыдов В.В. Теория развивающего обучения: монография. – М.: Интор, 1996.

Дворникова Т. А. Психологические факторы развития учебных стратегий студентов // Автореф. дисс.... канд. психол. наук. Санкт-Петербург. – 2017.

Савинова Л.Ф. Современные модели повышения квалификации: опыт, проблемы, перспективы // Научные обеспечение системы повышения квалификации кадров. – Челябинск, 2013.

<https://cambriancollege.ca>

www.ziyounet.uz